

KORPORATIV MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILI VA SAMARALI BOSHQARUV QARORLARI

Yakubov Ulug'bek Qosimovich

Toshkent davlat iqtisodiy universiteti

“Moliyaviy tahlil” kafedrasi professori, DSc.

Annotatsiya. Maqola O'zbekistonda korporativ boshqaruvning usullari, uni boshqarishning ichki va mexanizmlaridan, o'ziga xos jihatlarini inobatga olib tahlili taklif qilingan. Korporativ boshqaruv, ijtimoiy mulkchilik shaklini yaratishning tahlili va qarorga muvofiq qaror qabul qilish masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: korporativ, tahlil, aktiv, passiv, moliyaviy hisobot, korporatsiya, korporativ moliyaviy hisobot, moliyaviy transformatsiya, moliyaviy tahlil.

АНАЛИЗ КОРПОРАТИВНОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ И ПРИНЯТИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ.

Якубов Улугбек Косимович

Ташкентский государственный экономический университет

Профессор кафедры «Финансовый анализ»,

доктор экономических наук.

Аннотация. В статье представлен анализ методов корпоративного управления в Узбекистане, его внутренних и внешних механизмов с учётом его специфики. Освещаются вопросы корпоративного управления, анализ формирования формы общественной собственности и принятия решений в соответствии с постановлением.

Ключевые слова: корпоративный, анализ, активы, обязательства, финансовая отчётность, корпорация, корпоративная финансовая отчётность, финансовая трансформация, финансовый анализ.

ANALYSIS OF CORPORATE FINANCIAL STATEMENTS AND EFFECTIVE MANAGERIAL DECISIONS

Ulugbek Kasimovich Yakubov

Professor, Doctor of Sciences (DSc)

Department of Financial Analysis

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article presents an analysis of corporate governance methods in Uzbekistan, taking into account the internal and external mechanisms and the specific characteristics of its principles. The features of corporate governance, particularly the analysis of ownership structure and the decision-making issues based on its results, are examined.

Keywords: corporate, analysis, assets, liabilities, financial statements, corporation, corporate financial reporting, financial transformation, analytical approach, financial analysis.

Kirish

Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimizning rivojlanish modelida belgilangan Davlat dasturlarini amalga oshirishda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligida ishlab chiqarish va investitsiya faolligi muhim omil bo'lgan. Shu sababdan, sohalarni rivojlantirish maqsadida 2030-yilga qadar asosiy kapitalga 250 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiyalarni o'zlashtirish choralari ko'rilmogda. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni 2025 yilda 9,7 foiz, 2026-yilda 9,5 %, 2027-yilda 9,2 birlikka o'sishi prognoz qilingan¹ bo'lib, ular buxgalteriya hisobining turli modellariga asoslangan korporativ boshqaruvda jalb qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil, 10-noyabrdagi 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i bilan mamlakat hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tasdiqlangan. Xususan, 2-son, "Kooperativ tashkilotlarda ishtirokchilarning ulushlari va shu kabi instrumentlar" Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini sharhlash qo'mitasi sharhi, 3-son "Biznes birlashuvlari", 10-son "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot", 11-son "Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar" Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini, 28-son "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti kabi korporativ boshqaruv hisobiga oid xujjatlar tasdiqlangan.

Adabiyotlar tahlili.

M.Xamidulin: - "Korporativ boshqaruv - korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir"², deb tariflagan.

¹ Budjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

² Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. - Т.: Молия, 2008. -204 с.

D.Suyunov, S.Elmirzayev: - “Korporativ boshqaruv - bu mulk shaklidan qat’iy nazar amaldagi huquqiy-me’yorlarga asoslanib, boshqaruvning malum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir”³, deb ta’kidlangan.

2-son “Kooperativ tashkilotlarda ishtirokchilarning ulushlari va shu kabi instrumentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini sharhlash qo‘mitasi sharhida: - “Kooperativlar va boshqa shunga o‘xshash tashkilotlar umumiy iqtisodiy yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida shaxslar guruhlari tomonidan tashkil etiladi. Milliy qonunchilikda odatda kooperativ birgalikdagi biznes faoliyati orqali o‘z ishtirokchilarining iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashishga intiladigan jamiyat sifatida ta’riflanadi. 11-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartida - “Birgalikdagi faoliyat”ga: - taraflarning shartnomaviy kelishuv asosidagi faoliyati; -taraflarning ikki yoki undan ortiqlariga faoliyat ustidan birgalikdagi nazoratining o‘rnatilishi sifatida qaralgan⁴.

Tahlil va asosiy natijalar.

Moliyaviy hisobotning amaldagi xalqaro standartlariga binoan, birgalikdagi faoliyatda moliyaviy instrumentlarning majburiyatlar yoki xususiy kapital sifatida tasniflash tamoyillari belgilangan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, birgalikdagi faoliyatga tasir etish darajasiga qarab quyidagi konsolidatsiya usullari qo'llaniladi:

1. To'liq konsolidatsiya. To'liq konsolidatsiyada kompaniya sho'ba korxonani nazorat qilganda qo'llaniladi. Odatda, bu ovoz beruvchi aktsiyalarning 50% dan ortig'iga egalik qilishni anglatadi.

Sho'ba korxonaning 100% aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari bosh kompaniyaning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotiga kiritiladi (1-jadval).

1-jadval.

To'liq konsolidatsiyalashgan balans (moliyaviy holat) hisobot.

Ko'rsatkichlar	Bosh tashkilot	Ulush kiritgan subyekt	Hisob-kitob	Jamlangan hisobot
1	2	3	4	5
Aktivlar				
Asosiy vositalar	4446687	126573328		131020015
Kiritilgan investitsiya	80000000	0	-80000000	0

³ Suyunov D.X., Elmirezayev S.E. - Korporativ boshqaruv, – Toshkent: Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2021. – 448 bet.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil, 10-noyabrdagi 61-sonli “O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida”gi buyrug'i.

Gudvil			22775651,2	22775651,2
Guruh ichidagi hisoblashlar	2130	0	-2130	0

1	2	3	4	5
Tovar-moddiy zaxiralar	434684	10535594		10970278
Debitorlik qarzlari	18183207	542042	-2130	18723119
Pul mablag'lari	791573	1275554		2067127
Boshqa oborot aktivlari		3907446		3907446
Jami aktivlar	103858281	142833964	- 57228608,8	189463636,2
Majburiyatlar va kapital				
Kreditorlik qarzlari	11107066	22377128	-2130	33482064
Guruh ichidagi hisoblashlar		2130	-2130	0
Rezervlar	1500000			1500000
Joriy soliqdan majburiyatlar	709510	1334541		2044051
Boshqa joriy majburiyailar		6473601		6473601
Uzoq muddatli majburiyatlar	80000000	41116128		121116128
Aksioner kapitali	6382993	69237353	-69237353	6382993
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	4158712	2293083	-2293083	4158712
Nazorat qilinmaydigan aksioner kapitali (20 foiz)			14306087,2	14306087,2

Jami majburiyatlar va kapital	103858281	142833964	- 57228608,8	189463636,2
--	------------------	------------------	-------------------------	--------------------

Hisob-kitoblar:

Ulush kiritgan subyekt aktivlari= $69237353+2293083=71530436$ so'm;

Nazorat qilinmaydigan ulush = $71530436 \times 0,20=14306087,2$ so'm;

Bosh tashkilotdagi ulushi $71530436 \times 0,80=57224348,8$ so'm;

Gudvil= $80000000-57224348,8=22775651,2$ so'm.

Investitsiyaning 80000 mln so'm summasi, aktiv ham "o'chiriladi" (kreditlanadi). Investitsiya summasi 80000000 va ulush kiritgan subyekt kapitali 57224348,8 o'rtasidagi 22775651,2 so'm ($80000000-57224348,8$) musbat farq gudvill (manfiy farq o'sha davrning foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotida daromad deb tan olinadi) sifatida aktiv tarfaga yoziladi. Shu boisdan, konsolidatsiyalashgan balansda ulush kiritgan subyektning xususiy kapitali 69237353 aks etmaydi. Shuningdek, ulush kiritayotgan subyektning xarid sanasigacha to'plangan foydasi 2293083 ming so'm jamlanmaydi va summa investitsiya bilan yopib yuboriladi. Xarid sanasidan keyingi foydagina bosh tashkilotning foydasiga qo'shiladi. Qayd eish kerakki, balansda 80000000 so'mlik "Investitsiya" moddasi hisobiga farq yuzaga keladi. Investitsiya passiv tomondagi biron bir qarz yoki kapital hisobiga moliyalashtirilgani inobatga olinishi zarur.

To'liq konsolidatsiyalashgan moliyaviy natijalari (foyda va zarar) to'g'risida hisobotni tuzish bosqichlari:

1-bosqichda, moliyaviy hisobotlarni yig'ish, ulardagi ko'rsatkichlar amaldagi buxgalteriya hisobi talablari doirasida shakllantirilganligiga ishonch hosil qilish, hisobot moddalarida nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, ularni bosh kompaniyaning buxgalteriya hisobi siyosatiga moslashtirish kerak;

2-bosqichda, moliyaviy hisobotlarning elementlarini jamlash zarur;

3-bosqichda, guruh ichidagi muomilalarni korrektirovka qilish talab etiladi, xususan:

- guruhlararo sotuvlar miqdorini umumiy daromaddan va unga tegishli xarajatlar miqdorini tannarxdan olib tashlang.

- hisobot davri oxirida bir guruh korxonasi tomonidan boshqasiga sotilgan tovarlar xaridorning omborida qolsa, ushbu sotishdan olingan foyda realizatsiya qilinmagan deb hisoblanadi va uni bekor qilish kerak.

- sho'ba korxona bosh kompaniyaga dividendlar to'lagan bo'lsa, bu to'lovlar konsolidatsiyalangan hisobotdan chiqarib tashlanishi kerak.

4-bosqich, foydani nazorat qilinmaydigan ulushlarga taqsimlash;

5-bosqich, konsolidatsiyalangan hisobotni tuzish (2-jadval).

2-jadval.

Biznes subyekting to'liq konsolidatsiyalashgan moliyaviy natijalari (foyda va zarar) to'g'risida hisobotini yakuniy ko'rinishi.

Ko'rsatkichlar	Bosh tashkilot	Ulush kiritgan subyekt	Hisob-kitob	Jamlangan hisobot
1	2	3	4	5
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum	55568940	522905	121717	55970128
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi	49133003	281602	78561+21210	49336044
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan moliyaviy natija	6435937	241303	21210	6698450
Davr xarajatlari	3850244	38088	0	3888332

1	2	3	4	5
Soliq to'lovigacha moliyaviy natija	2585693	203215	21210	2810118
Foyda solig'i	391373	176346	0	567719
Hisobot davrining sof foydasi	2194320	26869	21210	2242399
Sof fodani taqsimlanishi:				
Aksiyadorlarga tegishli foyda	2194320	$(26869 \cdot 80) / 100$	21495,2	2215815,2
Omborda qolgan mahsulot			21210	0
Korrektirovka qilingan foyda			2215815,2-21210	2194605,2
Nazorat qilinmaydigan foyda		$(26869 \cdot 20) / 100$	5373,8	5373,8
Jami				2199979

Boshqa investorlarga tegishli bo'lgan sho'ba korxonadagi ulush (nazorat qilinmagan ulush) moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotda alohida satr sifatida taqdim etiladi.

Guruh ichidagi tranzaksiyalar, investitsiyalar va balanslarni ikki marta hisoblashni oldini olish uchun chiqarib tashlash kerak.

2. Ulushli qatnashish usuli. Ulushli qatnashish usulida investor boshqa kompaniya ustidan nazorat emas, balki sezilarli ta'sirga ega bo'ladi. Ovoz beruvchi mulkning 20% dan 50% gacha egalik qiladi. ish bilan sodir bo'ladi.

Investitsiyalar dastlab tannarx bo'yicha tan olinadi, so'ngra kompaniyaning sof aktivlaridagi investor ulushidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda tuzatiladi. Investorning foyda yoki zarardagi ulushi foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

Investitsiya qiymati shirkatning sof aktivlaridagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun muntazam ravishda hisob-kitob qilinadi.

1. Foyda ulushi: investitsiya miqdori shirkatning sof foydasidagi bosh kompaniyaning ulushiga oshiriladi. Xuddi shu miqdor bosh kompaniyaning daromadlari to'g'risidagi hisobotda "Assotsiyalangan korxonalarga investitsiyalar bo'yicha daromadlar" sifatida aks ettiriladi.

2. Dividendlar: investitsiya miqdori sheriklik jamiyatidan olingan dividendlar miqdoriga kamayadi.

3. Boshqa tuzatishlar: Assotsiatsiyaning o'z kapitalidagi o'zgarishlar bilan bog'liq boshqa tuzatishlar ham bo'lishi mumkin (3-jadval).

3-jadval.**To'liq konsolidatsiya va ulushli qatnashish usullari o'rtasida tafovutlar.**

Farqli bekgilari	Ulushli qatnashish usuli	To'liq konsolidatsiya
Faoliyatga ta'siri	Muhim ta'sir (20-50% aktsiyalar).	Nazorat (aktsiyalarning 50% dan ortig'i).
Balans (moliyaviy holat to'g'risidagi) hisobotda aks ettirilishiga ko'ra	Investitsiyalar qiymati bitta satrda aks ettiriladi.	Sho'ba korxonaning aktivlari va passivlari konsolidatsiyalangan balansga satr bo'yicha kiritiladi.
Ozchiliklar manfaati	Ozchiliklar manfaati aks ettirilmaydi.	Ozchilik ulushi (nazorat qilinmagan ulush) o'z kapitalida aks ettiriladi.
Gudvil	Gudvil investitsiya qiymatiga kiritiladi, lekin alohida aks ettirilmaydi.	Uzoq muddatli aktivlar ichida alohida satr sifatida taqdim etiladi.

3. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar. Ushbu yondashuvda tomonlarning birgalikdagi nazorati va korxonaning aktivlari hamda majburiyatlari bo'yicha huquqlariga ega bo'lgan qo'shma kelishuvlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda har bir tadbirkor o'z moliyaviy hisobotida qo'shma faoliyatning aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlaridagi o'z ulushini tan oladi.

Mazkur usulning o'ziga hos jihatlari:

1. Aktivlar va majburiyatlar balans qiymatida birlashtiriladi;
2. Sotib olish narxi va sof aktiv qiymati o'rtasida farq yo'qligi sababli gudvil paydo bo'lmaydi;
3. Bir kompaniyani boshqa subyekt sotib olmagan bo'lsa, o'zaro investitsiyalar istisno qilinadi (4-jadval).

4-jadval.

Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlarda konsolidatsiyalashgan balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar

Ko'rsatkichlar	1-biznes subyeksi	2-biznes subyeksi	Jamlangan hisobot
1	2	3	4
Aktivlar			
Asosiy vositalar	4446687	126573328	131020015
Tovar-moddiy zaxiralar	434684	10535594	10970278
Debitorlik qarzlari	18183207	542042	18725249
Pul mablag'lari	793703	1275554	2069257
Jami aktivlar	23858281	138926518	162784799
Majburiyatlar va kapital			
Kreditorlik qarzlari	11107066	22377128	33484194
1	2	3	4
Uzoq muddatli majburiyatlar	4139495	41116128	45255623
Aksioner kapitali	4453008	71508991	75961999
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	4158712	3924271	8082983
Jami majburiyatlar va kapital	23858281	138926518	162784799
Faoliyat davomida 1000000 so'm sof foyda olindi. 50/50 nisbaatda.	500000	500000	
Jami aktivlar	24358281	139426518	
Sof foydasi	4658712	4424271	

Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlarda erishilgan natija ishtirokchilarning ulushiga ko'ra balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotiga qo'shiladi.

Segment moliyaviy hisobotlar tahlilida yondashuvlari quyidagi jihatlarni inobatga olishi:

1. Guruh miqyosi va samaradorligini baholash. To'liq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot elementlari foydalanuvchilarga katta hajmdagi aktiv, passiv, foyda va zarar moddalarini taqdim etadi. Shu sababdan, moliyaviy tahlilda guruhning haqiqiy daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini aks ettirish;

2. Shaxsiy hisobot bilan solishtirish. Sho'ba korxonalarining umumiy natijalarga ta'sirini aniqlash uchun konsolidatsiyalangan ko'rsatkichlarni bosh kompaniyaning moliyaviy hisoboti bilan solishtirish talab etiladi. Bu sho'ba korxonalarining birgalikdagi faoliyatning moliyaviy natijalariga qo'shgan hissasini aniqlash;

3. Nazorat qilinmaydigan ulushlarning ta'sirini hisobga olish. Sho'ba korxonalarining aktivlari va majburiyatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda to'liq aks ettirilgan bo'lsa-da, nazorat qilinmaydigan ulush guruhga tegishli bo'lgan foydani hisoblashda chegirilishi talab etiladi.

Bizingcha, korporativ boshqaruvda segment moliyaviy hisobotlarning tahlilini moliyaviy koefitsentlar bilan birga yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan ko'rsatkichlar tizimi asosidagi baholash bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa va takliflar.

Monitoring natijalariga binoan, moliyaviy tahlil asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2018 yildagi 1013-son qaroriga binoan, to'lov qobiliyati yoki qoplash ko'effitsiyenti, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi, aktivlarning va xarajatlarning rentabelliligi, o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va asosiy vositalarning eskirish ko'effitsiyentlarini⁵ aniqlash bilan baholanmoqda. Tadqiqotlardan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot asosida guruh faoliyatiga moliyaviy koefitsentlar bilan baho berish etarli emas⁶. Shu sababdan, moliyaviy koefitsentlar qatorini qo'shimcha ko'rsatkichlarni aniqlash va ularning holatiga qarab baholash birgalikdagi faoliyat yuzasidan samaraliroq qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi deb hisoblaymiz.

8-son, "Operatsion segmentlar" Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti: - "Biznes subektining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga o'zi shug'ullanadigan tijorat faoliyatining mohiyati va moliyaviy ta'sirlarini baholash imkonini beradigan

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2018 yildagi 1013-son, "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

⁶ Yakubov U., Abdullayev A.. Modeling of The Analysis of The Financial State of The Business Entity - Journal of Management and Economics, 2025.

ma'lumotlarni yoritib berishi kerak⁷. Segment lotin tilidagi “segmentum” soʻzidan olingan boʻlib, “kesik” yoki “chiziq” degan maʼnoni anglatadi. Segment – bu biror narsaning bir qismi, boʻlagidir. Operatsion segment biznes subektining operatsion qarorlarni qabul qiluvchi boshqaruv organi tomonidan segmentga resurslarni taqsimlash va uning faoliyati natijalarini baholash toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish maqsadida muntazam ravishda tahlil qilinadi.

Foyda yoki zarar, aktivlar hamda majburiyatlar toʻgʻrisidagi koʻrsatkichlari operatsion qarorlarni qabul qiluvchi boshqaruv organiga muntazam ravishda taqdim qilinsa, biznes subekti ularni yoritib berishi talab etiladi. Xususan: - tashqi xaridorlardan olinadigan tushumlar; -biznes subektining boshqa operatsion segmentlari bilan momilaridan olingan tushumlar; - foiz tushumlari; - foiz xarajatlari; - eskirish va amortizatsiya; - tashkilotning ulushli qatnashish usuli asosida hisoblangan taʼsir ostidagi tashkilotlarining va qoʻshma korxonalarining foydasi yoki zararidagi ulushi; - foyda soligʻi xarajati yoki daromadi; - eskirish va amortizatsiyadan tashqari muhim pulsiz moddalar.

Operatsion qarorlar qabul qiluvchi boshqaruv organi tomonidan koʻrib chiqiladigan segment aktivlari hisobot segmenti boʻyicha: - ulushli qatnashish usuli asosida hisobga olingan taʼsir ostidagi tashkilotlar va qoʻshma korxonalaridagi investitsiyalar summasi, - moliyaviy instrumentlar, kechiktirilgan soliq aktivlari, belgilangan toʻlovlar boʻyicha sof aktivlar va sugʻurta shartnomalari boʻyicha kelib chiqadigan huquqlardan tashqari uzoq muddatli aktivlarga kirimlar summalari yoritib berishi kerak.

Biznes subekti har bir hisobot segmenti uchun foyda yoki zarari, aktivlari hamda majburiyatlariga tushuntirishlar bergan holda, baholash koʻrsatkichlari oʻrtasidagi har qanday farqlarning xarakteri tavsiflanishi zarur. Negaki koʻrsatkichlardagi farqlar hisob siyosati va taqdim qilingan segment maʼlumotlarini tushunish uchun zarur boʻlgan taqsimlash siyosatini oʻz ichiga olishi mumkin. Hisobot segmentlari tarkibini oʻzgartirishga olib keladigan tarzidagi oʻzgartirishlarda oldin taqdim etilgan maʼlumotlarni qayta hisoblash talab etiladi.

Biznes subekti moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga oʻzi shugʻullanadigan tijorat faoliyatining mohiyati va moliyaviy taʼsirlarini va u faoliyat koʻrsatayotgan iqtisodiy muhitni baholash imkonini beradigan: segment tushumlari, hisobotda taqdim etiladigan segment foydasi yoki zarari, segment aktivlari, segment majburiyatlari va boshqa muhim segment moddalarini yoritib berishi talab etilgan. Segment faoliyatini baholashda iqtisodiy tahlilning oʻziga xos yondoshuvi talab etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Segment faoliyatini baholashda iqtisodiy tahlil yondoshuvi.

⁷ 8-son, “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.

Mulkda tutgan ulushi, %	Faoliyatga ta'siri	Segment faoliyatini baholashda iqtisodiy tahlil yondoshuvi
50-100	Nazorat	$R_s = \frac{\text{Hisobot davrning sof foydasi}}{\text{O'tgan davrning sof foydasi}} \times 100 > 100$
20-50	Axamiyatli	$R_f = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan hisobot davr foydasi}}{\text{Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan o'tgan davr foydasi}} \times 100$
1-20	Axamiyatsiz / faoliyatga ta'sir yo'q	$R_s > R_f > R_a = \frac{\text{Sof aktivlar qiymati hisobot davr}}{\text{Sof aktivlar qiymati o'tgan davr}} \times 100 > 100$

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosida daromadga - xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog'liq bo'lmagan xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi deb tarif berilgan. Shu boisdan, $R_s > R_f > R_a > 100$ yondoshuiga amal qilinishi zarur deb hisoblaymiz⁸.

Zamonaviy korporativ boshqaruv sharoitida moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sof foyda, mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan olingan foyda va aktivlar qiymatining ortishiga erishish bilan birgalikdagi faoliyat samaradorligini baholash maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2018 yildagi 1013-son, "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Budjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil, 10-noyabrdagi 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i.
4. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. - Korporativ boshqaruv, – Toshkent: Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2021. – 448 bet.
5. Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. - Т.: Молия, 2008. -204 с.
6. Yakubov U., Abdullayev A.. Modeling of The Analysis of The Financial State of The Business Entity - Journal of Management and Economics, 2025.

⁸ Yakubov U.. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashni takomillashtirish masalalari. - Tadqiqotlar, 2025.

7. Yakubov U.. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashni takomillashtirish masalalari. - Tadqiqotlar, 2025.
8. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi.
9. 8-son, “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.
- 10.2-son, “Kooperativ tashkilotlarda ishtirokchilarning ulushlari va shu kabi instrumentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini sharhlash qo‘mitasi sharhi;
- 11.3-son “Biznes birlashuvlari” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti;
- 12.10-son “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti;
- 13.11-son “Birgalikdagi faoliyat bo‘yicha kelishuvlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti;
- 14.28-son “Ta’sir ostidagi tashkilotlarga va qo‘shma korxonalarga investitsiyalar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti.